

## **ARAB TILIDAGI FORSCHA IQTIBOSLAR**

**Alamov Shavkatjon**

Samarqand davlat chet tillar instituti,  
Yaqin sharq tillari kafedrası o'qituvchisi.  
Tel: +998973939944

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada arab tili tarkibiga kirib kelgan forscha so'zlar va iboralar tadqiqi nazarda tutilgan. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, barcha musulmon xalqlarning tillarida arbcha so'zlar mavjud. Aytish mumkinki, arab tili hisobidan dunyoning ko'plab tillari o'z lug'aviy boyligini oshirgan. Ammo masalaning boshqa tomoni shundan iboratki, arab tilining o'zi ham juda ko'p so'zlarini boshqa tillardan iqtibos qilgan. Arab tilining mukammallashuvi uchun birinchi navbatda fors tilining o'rni katta bo'lgan. Bu masalaga oid bir qancha maqolalar va ilmiy asarlar yaratilgan. Bu maqolada mazkur masalaning tadqiqi va arabiylashgan bir qancha forscha so'zlarning tahlilini o'z oldimizga maqsad qilib oldik.*

**Kalit so'zlar:** Arab, fors, til, lug'at, iqtibos, ma'no, o'zak, leksika.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье речь идет об изучении персидских слов и словосочетаний, ставших частью арабского языка. Из истории языкознания известно, что арабские слова есть в языках всех мусульманских народов. Можно сказать, что многие языки мира увеличили свое лексическое богатство за счет арабского. Но другая сторона вопроса заключается в том, что сам арабский язык цитирует много слов из других языков. Роль персидского языка в развитии арабского языка была велика в первую очередь. На эту тему написано несколько статей и научных работ. В данной статье мы поставили перед собой цель исследовать этот вопрос и проанализировать ряд арабизированных персидских слов.*

**Ключевые слова:** арабский, персидский, язык, словарь, цитата, значение, ядро, лексика.

### **ABSTRACT**

*This article deals with the study of Persian words and phrases that have become part of the Arabic language. It is known from the history of linguistics that Arabic words are found in the languages of all Muslim peoples. It can be said that many languages of the world have increased their lexical richness at the expense of Arabic. But the other side of the issue is that the Arabic language itself quotes many words*

from other languages. The role of the Persian language in the development of the Arabic language was great in the first place. Several articles and scientific papers have been written on this topic. In this article, we have set ourselves the goal of exploring this issue and analyzing a number of Arabicized Persian words.

**Keywords:** Arabic, Persian, language, dictionary, quotation, meaning, core, vocabulary.

## **KIRISH**

Arabcha soʻzlarning butun dunyo boʻylab tarqalganligi va dunyoning deyarli barcha tillarida arabcha soʻzlarning mavjudligi oʻz shubhasizdir. Xususan Islom dinini qabul qilgan xalqlarning tilida sanoqsiz arabcha soʻzlar va iboralarni koʻrishimiz mumkin. Ammo arab tili tarkibida ham juda koʻp iqtibos qilingan begona soʻzlar mavjud. Arab tili juda katta miqdordagi begona soʻzlarning oʻzlashganligi natijasida oʻz lugʻaviy tarkibini boyitgan. Bu albatta turli bahslarga sabab boʻladigan ilmiy masala hisoblanadi. Arablarning uzoq yillar davomida amalga oshirgan harbiy yurishlari natijasida arabcha soʻzlarning tarqalgani bilan birga begona soʻzlar ham arab tili tarkibiga kirib kelishiga sabab boʻlgan. Qadimdan arab xalqi bobulliklar, misrliklar, yunonliklar va forslar bilan yonmayon yashaganlar va doimiy ravishda ular orasida har tomonlama aloqa boʻlib turgan. Arablar turli qabilalardan iborat boʻlgan tarqoq xalq edilar. Bu qabilalar oʻz yashash hududlariga yaqin boʻlgan xalqlar bilan doimiy robitada boʻlib turganlar. Buning natijasida arablar boshqa millatlar tillaridan koʻplab soʻzlarni oʻz tillariga oʻzlashtirdilar. Aytish joizki, arab tiliga iqtibos boʻlgan soʻzlarning asosiy qismi fors tilidan olingan. Faqatgina forslar bilan hamsoyalikda yashaydigan qabilalar emas, balki boshqa qabilalar ham fors tilidan sanoqsiz soʻzlarni oʻzlashtirdilar. “Kitob ul-bayon vat-tabyin” asarida shunday maʼlumot keltirilgan: “Bir guruh eronliklar Madinaga kelib joylashdilar va Madinadagilar ularning tilidagi bir qancha soʻzlarini oʻzlashtirdilar”<sup>1</sup>.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Maqolada iroqlik tilshunos olim Assayid Addisherning “Arabiylashgan forscha soʻzlar” asaridan asosiy manba sifatida foydalanildi. Ushbu asar milodiy 2008 yili eronlik olim Sayid Hamid Tabibiyon tomonidan forschaga tarjima qilingan. Asarning ushbu tarjimasi ham mavzuni tadqiq etish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi. Begona soʻzlarning arab tili tarkibiga kirib kelganligi xususida koʻplab ilmiy ishlar olib borilgan va maʼlum darajada oʻrganilgan. Misrlik tadqiqotchi olim Ahmad Muhammad al-Havfiy 1960 yili arab tilidagi forscha soʻzlar mavzusiga oid ikkita

السيد ادى شير. واژه های فارسی عربی شده. ص. ۱۰<sup>1</sup>

kitob yozgan. Bu kitoblarning birinchisi التيارات المذهبية بين العرب و الفرس، الدار القومية (Arablar va eronliklar oʻrtasidagi diniy jarayonlar) va ikkinchisi التيارات ثقافية بين العرب و الفرس، دار نهضة مصر، (Arablar va forslar oʻzrtasidagi ilmiy jarayonlar)<sup>2</sup>. Havfiy ushbu kitoblarida arablar va eronliklarning johiliyat davri va undan keyingi davrlardagi har tomonlama aloqalarini mufassal yoritib bergan va arab tilidagi insoniyat hayotining turli tamoillariga xos boʻlgan sohalarga oid forscha soʻzlarni tadqiq qilgan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Begona soʻzlar arab tiliga uning uzoq rivojlanish yoʻli davomida kirib kelgan. Efiopiya, ibroniy, oʻrta ossuriya, nabatiy, yunon, fors va boshqalar kabi turli tillardan olingan oz miqdordagi qarzlar Qurʼonda allaqachon qayd etilgan. Arab tilining oʻzi manba til vazifasini bajargan nisbatan uzoq davr (VIII-XIII asrlar) boʻlgan. Bunga arab sivilizatsiyasi tarixi, uning Osiyo, Afrika va Yevropaning koʻplab xalqlari madaniyati bilan chambarchas bogʻliqligi sabab boʻlgan. Bu aloqa islom dini qabul qilingandan keyin yanada mustahkamlandi. Arab tilining boyib borishida qadimda fors tilining oʻrni katta boʻlgan.

Misrlik tadqiqotchi olim Ahmad Muhammad al-Havfiyning taʼkidlashicha arab tili tarkibida urush, qurol-aslaha, til, adabiyot, xat, doston, turli oʻyinlar, bayramlar, ichkilik va yegulik kabi koʻplab sohalarga oid soʻzlar va soʻz turkumlari mavjud.<sup>3</sup>

Taʼkidlash joizki, arablar begona soʻzlarning maʼlum bir qismini shaklini oʻzgartirmasdan qabul qilganlar va baʼzilarini esa qisman oʻzgartirganlar. Ammo begona tillardan kirgan soʻzlarning asosiy qismini shakl jihatidan shu darajada oʻzgartirganlarki, ularning asl shaklini topish katta qiyinchilik tugʻdiradi. Shu boisdan arab tili tarkibidagi begona soʻzlarni izlash va tadqiq etish tilshunoslikdagi eng murakkab ishlardan biri hisoblanadi.

Arab tilidagi begona soʻzlarning shaklan oʻzgarishiga qoʻyidagi jihatlar sabab boʻladi:

1. Soʻzlarning boshi yo oʻrtasidagi va yo oxiridagi baʼzi harflar tushib qoladi;
2. Begona soʻzlar tarkibiga soʻz va tovushlar qoʻshiladi;
3. Begona soʻzlardagi baʼzi hprflar oʻrniga boshqa harflar ishlatiladi.
4. Begona soʻzlarning oxiriga “jim” yo “qof” harflari izofa qilinadi. Bu holatni asosan “hoye havvaz” harfi bilan tugaydigan soʻzlarda koʻrishimiz mumkin. Masalan, “gurba” (mushuk) soʻzi “qurbaj” yoki “qurbaq” talaffuz qilinadi.

<sup>2</sup> <https://ar.wikipedia.org/wiki/%D9%85%D8%B5%D8%B1>

<sup>3</sup> التيارات ثقافية بين العرب و الفرس، دار نهضة مصر، ١٩٦٨

5. Ba'zan begona so'zlarning shakli unchalik o'zgartirilmagan tarzda muarrab qilinadi. Bu turdagi so'zlar talaffuz jihatidan asl shakliga o'xshash. Masalan, "Gavhar" so'zi "Javhar" talaffuz qilinadi.

6. Begona so'zlar ichida fe'llar ham juda ko'p bo'lib, ular arabcha fe'llarga o'xshash tarzda talaffuz qilinadi. Masalan, forscha "ko'shidan" (harakat qilmoq) fe'li "kosha" va "yakushu" shakllarida ishlatiladi.

Yana bir narsani aytish joizki arab tilida mavjud bo'lmagan to'rtta tovush "p", "ch", "j" (jurnal so'zidagi "j") va "g" bir qator so'zlarning shakl va talaffuz jihatidan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda bu harflar o'rniga talaffuz jihatidan yaqinroq bo'lgan harflar ishlatiladi.

Arab tili tarkibidagi sanoqsiz forscha so'zlarning bir nechtasini namuna sifatida keltiramiz:

الابريق - Al-ibriq so'zi aslida forscha آبريز - obrez so'zidan olingan. Ibriq deganda aslan ikki dastali ko'za shakliga o'xshash idish tushuniladi va undan suv to'kiladi. Obrez so'zi esa ikkita so'z – ob(suv) va rez(to'kmoq) so'zlaridan tarkib topgan murakkab so'z hisoblanadi.

الابل - Al- obil so'zi forscha ابر -abr so'zidan olingan. Turkiy tillarda bu so'z bulut deb aytiladi. Rus tilidagi "oblako" so'zi ham shaklan o'xshash. Kurd tilida esa "habar" deyiladi. Ko'rinib turganidek hin yevropa tillar oilasiga kiradigan tillardagi shakli bir birlariga o'xshash.

الاستاذ - al-ustaz so'zi forscha استاد -ustod so'zining muarrab bo'lgan shaklidir. O'zbek tilida keng ishlatiladigan "ustoz" so'zi ham forscha "ustod" so'zining o'zgargan shakli bo'lib, ma'no jihatidan o'zgarmagan. O'zbek tilidagi hunarmand ma'nosini aynglatuvchi "usta" so'zi ham mazkur so'zning shaklan o'zgargan variantidir. "Usta" so'zi turk va kurd tillarida ham juda keng ishlatiladi.

الايوان - al-ayvan so'zi ايوان -ayvon so'zidan olingan va bu so'zning o'zi fors tiliga oromiy tildan ko'chib kelgan. Oromiy tildagi shakli "aivana" bo'lib, uning ma'nosi boshpana topish yoki berkinish. O'zbek tilidagi "uy" so'zi va turk tilidagi "ev" so'zi ham shaklan bu so'zga o'xshaydi va ma'nosi jihatidan ham o'xshash. Demak bu so'zlar ham qadimgi oromiy tildagi "aivana" so'zidan kelib chiqqan deb xulosa qilishimiz mumkin.

بدرق و بدرق - badraq va bazraq so'zlari arab tilida korvonlarni xavf xatardan qutqarish, posbonlik qilish, korvon yo'lidagi qaroqchilardan emin saqlash ma'nosini anglatadigan so'zlar hisoblanadi. Bu so'zlarning ikalasi ham forscha بدره -badroh (rohi bad – yomon yo'l) so'zidan olingan.

البَطّ –al-bat so‘zi arab tilidagi forscha بَتّ-bat so‘zining muarrab bo‘lgan shaklidir. بَتّ-bat so‘zining asl ma‘nosi o‘rdak (suvda yashaydigan qush), ammo shishadan yasalgan suv idishi ham “بَتّ bat” deyilgan. Chunki bu idishning shakli o‘rdakning ko‘krigiga o‘xshaydi. Yunon tilidagi “fatta” yo “butis” va rus tilidagi “butilka» so‘zlari ham aynan forscha “بَتّ-bat” so‘zidan olingan.

البلاس-albalas so‘zi forscha پلاس-palos so‘zidan olingan. Bu so‘zdagi “p” harfi arab tilida mavjud emasligi sababli unga tovush jihatidan o‘xshash bo‘lgan “b” harfi almashgan. Palos so‘zi o‘zbektiliga ham fors tilidan iqtibos bo‘lgan.

Arab tilida الخُرُوح-al-jurux degan so‘z bor va bu so‘z toshni aylantirib otadigan urush quroli ma‘nosini ifoda etadi. الخُرُوح-al-jurux so‘zi forscha چرخ-charx so‘zidan olingan. Charx so‘zining ma‘nosi aylana yoki aylanishdir. E’tibor bersak ikkala so‘zning ham shakl va ham ma‘no jihatidan bir-biriga o‘xshashligiga guvoh bo‘lamiz. Charxi falak deganda osmon va aylanib turgan yulduz hamda sayyorala tushuniladi. Ushbu so‘z o‘zbek tilida ham ishlatiladi.

الخنار-Al-junnar so‘zi forscha چنار-chanor so‘zidan olingan. Bu so‘z arab tilida ba‘zan صِنار-sinar ham deyiladi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Fors tilidan olingan iqtiboslar ingliz tiliga ham ko‘p jihatdan kirdi. Fors tilining qadimgi dunyoda keng tarqalishi arab, urdu (yoki hind), turk, yunon kabi tillar tomonidan forscha so‘zlarni o‘zlashtirishga olib keldi. Forslar bilan savdo-sotiq orqali forscha so‘zlar italyan, ispan, portugal va fransuz tillariga o‘tgan. Bu tillarning barchasidan forscha so‘zlar tarixning tegishli davrlarida ingliz tiliga kirib kelgan. Fors tilidan g‘arb tillarigat to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirishlar 15-asr oxiridan boshlangan.

Mazkur masalani mukammal o‘rganish barcha musulmon xalqlar uchun muhim deb bilamiz. Chunki arab va fors tiddaridan o‘zlashgan so‘zlar barcha turkiy xalqlar va boshqa musulmon xalqlar tillarida mavjud. Mazkur mavzuning tahlili eng avvalo ko‘plab so‘zlarning etimologik jihatini o‘rganish uchun muhim vosita bo‘la oladi.

## **REFERENCES**

1. لألفاظ الفارسية المعربة قاهره. ١٩٨٨
2. السيد ادى شير. واژه های فارسی عربی شده. ص. ١٠ .
3. التّيارات ثقافية بين العرب و الفرس، دار نهضة مصر، ١٩٦٨
4. Shavkat Rahmatulloyev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati I jild , 2000, Toshkent, “Universitet”.

- 
5. Shavkat Rahmatulloyev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati II jild, 2003 Toshkent, “Universitet”.
  6. Shavkat Rahmatulloyev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati III jild , 2009 Toshkent, “Universitet”.
  7. <https://ar.wikipedia.org/wiki/%D9%85%D8%B5%D8%B1>